

Samarqand davlat chet tillar institutida startup-loyihalarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 24-dekabrda PQ–60-son hamda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-dekabrda PQ–61-son qarorlariga muvofiq Samarqand davlat chet tillar institutida (keyingi o‘rinlarda – Institut) startup-loyihalar tanlovlarini e’lon qilish, startup-loyihalarni tanlab olish, ularni amalga oshirish hamda natijadorligini baholash tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

startup-loyiha – amalga oshirish xavfi yuqori bo‘lgan sharoitda yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratuvchi innovatsion ishlanmalarning qo‘llanilishi, ko‘lami va tez o‘shish sur‘ati bilan farqlanadigan yangi biznes loyiha;

iqtisodiy va marketing tadqiqotlari – ichki bozordagi tovarlar (ishlar yoki xizmatlar)ga bo‘lgan talabni o‘rganish, shu jumladan ularning narxi, ularga bo‘lgan talab miqdori, raqobatchilarning bozordagi o‘rnini o‘rganish;

texnik topshiriq – loyihani ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va uning natijalarini qabul qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qarorlarga qo‘yiladigan talablarni belgilab beruvchi texnik hujjat.

3. Mazkur Nizom qoidalari homiy tashkilotlar mablag‘lari hisobidan to‘liq moliyalashtiriladigan, shuningdek Institut kengashi yoki Institutning Kuzatuv kengashi tomonidan tanlov e’lon qilmagan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan loyihalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-bob. Startup-loyihalar tanlovlarini e’lon qilish tartibi

4. Startup-loyihalar tanlovi (keyingi o‘rinlarda – tanlov) mavzusini shakllantirish Institutning “Innovation markaz” (keyingi o‘rinlarda – markaz) tomonidan bevosita yoki Institut xodimlari, professor-o‘qituvchilari, talabalari, doktorantlari va mustaqil izlanuvchilari tomonidan mazkur Nizomning 1-ilovasida ko‘rsatilgan shaklga muvofiq taqdim etilgan takliflar asosida amalga oshiriladi.

5. Taklif etilgan mavzular Markaz hamda reja-moliya bo‘limi tomonidan bir oy ichida uning innovatsionligi hamda istiqbolga ega ekanligi jihatidan o‘rganib chiqiladi va tegishli xulosa bilan birga, tanlov e’lon qilish masalasini ko‘rib chiqish uchun Institut Innovatsion kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) muhokamasiga kiritiladi.

Tanlov e'lon qilish uchun Markaz tomonidan bevosita ilgari surilayotgan mavzular Kengash muhokamasiga kiritilishidan oldin reja-moliya bo'limi bilan kelishiladi.

6. Kengash kelib tushgan mavzularni muhokama qilib, tanlov e'lon qilish to'g'risida yoki tanlov e'lon qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

7. Kengashning tanlov e'lon qilish to'g'risidagi qarori bilan tanlov shartlari, yo'nalishlari va loyihalarni topshirish muddatlari belgilanadi.

Tanlovni e'lon qilishda uning mavzusidan kelib chiqqan holda, taqdim etiladigan loyihalar uchun iqtisodiy va marketing tadqiqotlarini o'tkazish, shuningdek biznes-reja va texnik topshiriqlarni ishlab chiqish bo'yicha aniq talablar belgilanishi mumkin.

3-bob. Startup-loyihalarni tanlab olish tartibi

8. Tanlov doirasida kelib tushgan loyihalar bir oy ichida Markaz tomonidan tanlov mavzusi, shartlari va muddatlariga rioya etilganligi jihatidan ko'rib chiqiladi.

9. Tegishli talablarga rioya etgan holda taqdim etilgan loyihalar tanlab olinadi hamda Kengash muhokamasiga kiritiladi. Bunda, tegishli talablarga rioya etmagan holda taqdim etilgan loyihalar Kengash muhokamasiga kiritilmaydi.

10. Kengash muhokamasiga kiritilgan startup-loyihalar taqdim etilgan kundan boshlab bir oy ichida ko'rib chiqiladi.

11. Loyihalar Kengash a'zolari tomonidan mazkur Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi.

12. Kengash a'zolaridan biri yoki bir nechtasi muhokama qilinayotgan loyiha rahbari yoki a'zosi bo'lgan taqdirda, u(lar)ning muhokamada ishtirok etish(lar)iga yo'l qo'yilmaydi.

13. Kengash a'zolari tomonidan har bir loyiha bo'yicha qo'yilgan ballar Kengash kotibi tomonidan umumlashtirilgan holda e'lon qilish uchun Kengash raisiga taqdim etiladi.

14. Baholash natijalariga ko'ra, 60 va undan yuqori ball to'plagan loyihalar tanlov g'olibi deb e'lon qilinadi. Bir tanlov mavzusi bo'yicha bir nechta loyiha 60 va undan yuqori ball to'plagan taqdirda esa eng yuqori ballni to'plagan loyiha tanlov g'olibi deb e'lon qilinadi. Bunda, to'plangan ballar teng bo'lgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

15. Tanlov natijalariga ko'ra, Kengash quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

tanlov g'olibi deb e'lon qilingan loyiha(lar)ni moliyalashtirishga tavsiya etish to'g'risida;

loyiha(lar)ni moliyalashtirishni rad etish to'g'risida.

16. Kengash a'zolaridan biri yoki bir nechta baholash jarayonida ko'pchilikning fikriga qo'shilmagan taqdirda, o'z(lar)ining alohida fikrini bildirishga haqli hamda u(lar)ning alohida fikri yig'ilish bayonnomasiga kiritilishi shart.

17. Kengash tomonidan moliyalashtirishga tavsiya etilgan loyihani moliyalashtirish to'g'risidagi masala Institut kengashi muhokamasiga kiritiladi.

18. Institut kengashi tavsiya etilgan loyihani moliyalashtirish yoki moliyalashtirishni rad etish to'g'risidagi qarorlardan birini qabul qiladi.

Institut kengashining tanlov g'olibi deb e'lon qilingan loyihani (keyingi o'rinlarda – loyiha) moliyalashtirish to'g'risidagi qarorida mazkur loyihani moliyalashtirish usuli (ta'minot turini tanlagan holda qaytarish sharti bilan mablag' ajratish yoki ustav fondiga ulush kiritish), shuningdek, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa shartlar ham belgilanishi mumkin.

4-bob. Startap-loyihalarni amalga oshirish tartibi

19. Institut kengashi tomonidan moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilingan loyihani amalga oshirish tartibi Institut hamda loyiha rahbari o'rtasida tuziladigan shartnoma (keyingi o'rinlarda – shartnoma) asosida tartibga solinadi. Bunda, Institut kengashi qarori bilan belgilangan loyihani moliyalashtirish va amalga oshirish bilan bog'liq shartlar shartnomada majburiy tarzda belgilanishi lozim.

20. Shartnoma tuzish masalasida mazkur loyihani moliyalashtirish to'g'risida qaror chiqqan kundan boshlab ikki oygacha bo'lgan muddatda kelishuvga erishilmagan taqdirda, tanlov shartlari bajarilmagan deb hisoblanadi va bu holat kelgusida mazkur loyihani moliyalashtirishni rad etishga asos bo'ladi.

21. Loyihaning samarali, sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga oid chora-tadbirlar loyiha rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

22. Loyihalarni moliyalashtirish Institut Innovatsion jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5-bob. Startap-loyihalarning natijadorligini baholash

23. Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish davomida loyiha rahbari tomonidan Markaz har chorakda oraliq hisobotlar hamda loyihani amalga oshirish muddati yakunlangan kundan boshlab o'n besh kun ichida yakuniy hisobot taqdim etiladi.

24. Oraliq va yakuniy hisobotlar shartnomada belgilangan majburiyatlarning bajarilishi holatini hamda loyiha doirasida erishilgan natijalarni o'z ichiga olishi lozim.

25. Institut kengashi yakuniy hisobotni loyiha rahbari ishtirokida ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirilgan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilish to'g'risida;

loyihani to'liq yakunlash uchun qo'shimcha muddat belgilash to'g'risida.

26. Loyihani to'liq yakunlash uchun belgilangan qo'shimcha muddat yakunlangan kundan boshlab o'n besh kun ichida qayta yakuniy hisobot taqdim etiladi.

27. Institut kengashi qayta taqdim etilgan yakuniy hisobotni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirilgan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilish to'g'risida;

loyihadan ko'zlangan natijalarga to'liq yoki qisman erishilmagan deb hisoblab, loyiha natijalarini qabul qilmaslik to'g'risida.

Loyiha natijalari Institut kengashi tomonidan qabul qilinmagan taqdirda, shartnomada va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Institut manfaatlariga yetkazilgan zararni undirish choralari ko'riladi.

28. Qaytarish sharti bilan mablag' ajratish orqali moliyalashtirilgan loyiha natijalarining Institut kengashi tomonidan qabul qilinganligi mazkur loyiha rahbarini ajratilgan mablag'ni qaytarish majburiyatidan ozod etmaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

29. Loyiha rahbari quyidagilar uchun javobgardir:

loyiha hujjatlarining mazkur Nizom hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilishi;

taqdim etiladigan hujjatlar, ma'lumotlar va axborotlarning o'z vaqtida, sifatli va ishonchli bo'lishi;

loyihani o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish;

axborot xavfsizligini ta'minlash;

shartnoma shartlari, mazkur Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etish.

**Startap-loyihalar tanlovi
mavzusini shakllantirish bo'yicha
ASOSNOMA**

(Har bir mavzu bo'yicha alohida (davlat tilida) to'ldiriladi)

1.	Mavzu nomi	
2.	Mavzu tashabbuskorining familiyasi, ismi va otasining ismi	
3.	Qo'lga kiritilishi rejalashtirilayotgan yakuniy natijaning tavsifi	<i>Loyiha yakunida qo'lga kiritiladigan natija – mahsulot, yangi ishlanma, texnologiyaning aniq tavsifi qisqa va lo'nda bayon etilishi lozim.</i>
4.	Ehtiyoj (talab)ning mavjudligi (yetarliligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar	<i>Loyiha yakunida qo'lga kiritiladigan natijaga qaysi tarmoqda (sohada) qancha talab/ehtiyoj mavjudligi aniq raqamlarda ko'rsatilishi lozim</i>
5.	Yaratiladigan yangi ishlanmaning mavjud analoglaridan qiyosiy ustunligini ko'rsatuvchi indikatorlar	<i>Loyiha yakunida qo'lga kiritiladigan natijaning mavjud analoglari bilan taqqoslangan holda qiyosiy ustunligi raqamlar bilan solishtirilishi, tahlil qilinishi zarur.</i>
6.	Yaratiladigan yangi ishlanmani amaliyotga joriy etish uchun zarur infratuzilmaning mavjudligi	<i>Loyiha yakunida yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot ishlab chiqarish/xizmat ko'rsatish uchun resurs/xom-ashyo bazasi va zarur infratuzilmaning (ilmiy laboratoriya, kelgusida seriyalab ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish bazasi) mavjudligi asoslab berilishi lozim.</i>
7.	Mavzu doirasida bajariladigan loyihaning moliyalashtirish hajmi asoslanganligi	<i>Mavzu doirasida bajariladigan loyihani amalga oshirish (yangi ishlanmani yaratish) uchun sarflanadigan xarajatlardan kelib chiqib, moliyalashtirish hajmi miqdori asoslab berilishi lozim.</i>

Asosnomani shakllantiruvchining
F.I.O., lavozimi (ta'lim bosqichi,
fakultet va guruhi)

_____ (imzo)

Sana

“ _____ ” 202__-yil.

Startap-loyihalarni baholash MEZONLARI

1. Loyihaning innovatsionligi – 25 ballgacha:

avval qo'llanilmagan texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkil etish prinsiplariga asoslangan yoxud avval ishlab chiqarilmagan yangi mahsulotni ishlab chiqarish yoki yangi xizmatni ko'rsatishni nazarda tutadi – 16-25 ball;

avval qo'llanilgan texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkil etish prinsiplariga asoslangan yoxud avval ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmatni ko'rsatishni nazarda tutsa-da, o'z analoglaridan yuqori ustunlikka ega – 6-15 ball;

avval qo'llanilgan texnologiyalar va (yoki) jarayonni tashkil etish prinsiplariga asoslangan yoxud avval ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmatni ko'rsatishni nazarda tutadi, shuningdek, o'z analoglaridan farq qilmaydi – 0-5 ball.

2. Loyihaning investitsiyaviy jozibadorligi – 25 ballgacha:

qo'shimcha daromad keltiradigan hamda uni amalga oshirishda investitsiyalar xavfini kamaytiradigan qulay investitsion va innovatsion sharoitlar va afzalliklarga ega – 16-25 ball;

qo'shimcha daromad keltirish imkoniyatiga hamda uni amalga oshirishda investitsiyalar xavfini kamaytiradigan investitsion va innovatsion sharoitlar va afzalliklarga qisman ega – 6-15 ball;

qo'shimcha daromad keltiradigan hamda uni amalga oshirishda investitsiyalar xavfini kamaytiradigan investitsion va innovatsion sharoitlar va afzalliklarga ega emas – 0-5 ball.

3. Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqning muhofazalanganligi – 15 ballgacha:

muhofaza hujjatlari va (yoki) ilmiy-texnik hujjatlarning komplekti va (yoki) mahsulotning (texnologiyaning) texnik reglamenti, sinov o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar yoki mahsulotning tajriba nusxasi to'liq mavjud – 10-15 ball;

muhofaza hujjatlari va (yoki) ilmiy-texnik hujjatlarning komplekti va (yoki) mahsulotning (texnologiyaning) texnik reglamenti, sinov o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar yoki mahsulotning tajriba nusxasi qisman mavjud – 4-9 ball;

muhofaza hujjatlari va (yoki) ilmiy-texnik hujjatlarning komplekti va (yoki) mahsulotning (texnologiyaning) texnik reglamenti, sinov o'tkazilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar yoki mahsulotning tajriba nusxasi mavjud emas – 0-3 ball.

4. Loyihaning resurs bilan ta'minlanganligi – 20 ballgacha:

loyihani amalga oshirishning texnik imkoniyatlari, shu jumladan moddiy-texnik baza va mutaxassislar mavjud – 14-20 ball;

loyihani amalga oshirishning texnik imkoniyatlari, shu jumladan moddiy-texnik baza va mutaxassislar qisman mavjud – 6-13 ball;

loyihani amalga oshirishning texnik imkoniyatlari, shu jumladan moddiy-texnik baza va mutaxassislar mavjud emas – 0-5 ball.

5. Mablag'larning maqsadli sarflanishi asoslantirilganligi – 15 ballgacha:

loyiha uchun ajratiladigan mablag'larning maqsadli sarflanishi asoslantirilgan, moliyaviy xarajatlar to'g'ri taqsimlangan – 10-15 ball;

loyiha uchun ajratiladigan mablag'larning maqsadli sarflanishi qisman asoslantirilgan, moliyaviy xarajatlar taqsimotida kamchiliklar mavjud – 4-9 ball;

loyiha uchun ajratiladigan mablag'larning maqsadli sarflanishi asoslantirilmagan, moliyaviy xarajatlar noto'g'ri taqsimlangan – 0-3 ball.